



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024 yil 25-dekabr, № 267-268 (8890-8891)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI SANKT-PETERBURGGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
amaliy tashrif bilan
Rossiya Federatsiyasiga keldi.

"Pulkovo" xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Sankt-Peterburg gubernatori Aleksandr Beglov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

So'ng davlatimiz rahbari gubernator hamrohligida Isaakiy maydonida piyoda sayr qildi.

Tashrif doirasida O'zbekiston yetakchisi 25-26-dekabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida MDH davlatlari rahbarlarining norasmiy uchrashuvi hamda Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishida kuzatuvchi maqomida ishtirok etadi.

IKKI TOMONLAMA HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH BO'YICHA REJALAR MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
24-dekabr kuni bo'lib o'tgan telefon
orqali muloqotda Ozarbayjon
Respublikasi Prezidenti
Ilhom Aliyevni tavallud kuni bilan
samimiy muborakbod etdi.

Davlatimiz rahbari Ozarbayjon yetakchisining mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, hududiy yaxlitligini tiklash, barqaror taraqqiyotini ta'minlash va xalqaro nufuzini yuksaltirishdagi tarixiy rolini alohida ta'kidladi.

Prezidentlar oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston — Ozarbayjon do'stlik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalarini ko'rib chiqildi.

Joriy Ikki tomonlama hamkorlikni jadal rivojlantirish yilida birgalikda qilingan ishlar samarali bo'lgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zaro tovar ayirboshlash hajmi yuqori sur'atda o'sib bormoqda, avtomobilsozlik, to'qimachilik, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari faol bosqichda. Madaniy-gumanitar almashinuvning tadbirlarga bog'liq dasturi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston va Ozarbayjon rahbarlari xalqaro kun tartibi yuzasidan ham fikr almashdilar, bo'lajak tadbirlar rejasini ko'rib chiqdilar.

TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

Davlatimiz rahbariga maktabgacha va maktab ta'limi tizimida 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar bo'yicha axborot berildi.

Shaxs tarbiyasining poydevori bo'lgan bu bo'g'inlarga davlatimiz tomonidan doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Hududlarda yangi-yangi ta'lim maskanlari barpo etilib, mutaxassislar salohiyati oshirilmoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalari zamon talablariga moslab yangilanyapti.

Maktabgacha ta'lim tizimi ilg'or xorijiy tajribalar asosida yangicha rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. So'nggi yillarda bolalar bog'chalari soni 8 barobar oshib 38 mingtaga, qamrov esa 27 foizdan 76 foizga yetdi.

Mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi. Oxirgi yetti yilda 5 mingdan ziyod maktablarda, bu yil 608 ta maktabda qurilish va ta'mirlash ishlari bajarildi. Yoshlarga ikkinchi xorijiy til va kasb o'rgatish kengaytirildi. Ilk bor 530 ta maktabda inklyuziv ta'lim yo'lga qo'yildi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri navbatdagi rejalari yuzasidan axborot berdi.

Qayd etilganidek, kelgusi o'quv yilida 100 dan ziyod maktablar tashkil etilib, 257 ming o'quvchi

o'zni ochiladi. Davlat ta'lim dasturi xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Ikkinchi xorijiy til o'qitiladigan maktablar 420 taga, kasb-hunar o'rgatiladiganlari 400 taga yetkaziladi.

Dunyodagi ilg'or tajribalar, yangi uslublar amaliyotga kiritilmoqda. Jumladan, bu yil 1 ming 500 ta umumta'lim maktabida yangi baholash tizimi joriy qilindi. Natijalar tahlildan kelib chiqib bu tajriba yana kengaytiriladi.

O'qituvchilarga malaka toifasini berishda ham raqamlashtirilgan tizimga o'tilgan. Endi toifasini oshirgan pedagoglar rag'batlantiriladi, ularga to'plagan baliga qarab 70 foizgacha ustama beriladi.

Davlatimiz rahbari malaka sinovlari tartibini takomillashtirish, sog'lom raqobat muhitini yaratib, barcha pedagoglarga teng imkoniyat berish zarurligini ta'kidladi.

Shu maqsadda keyingi yildan hududlardagi malaka oshirish markazlarida o'quv jarayonlari o'zgartiriladi. Bunda har bir o'qituvchining ehtiyojidan kelib chiqib, tabaqalashgan malaka oshirish tizimi joriy qilinadi. Malaka

sinovidan o'ta olmaganlar alohida dastur asosida qo'shimcha o'qitiladi. Viloyatlardagi 5 ta Pedagogik mahorat markazi zamonaviy sharoitda ish boshlaydi. Barcha markazlar situatsion o'quv texnikalari va virtual laboratoriya bilan jihozlanadi.

Ta'lim tashkilotlariga malakali rahbarlarni jalb etish va faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida, qo'shimcha manbalar hisobidan, maktab va bog'chalar direktorlari hamda ularning o'rinbosarlarini moddiy rag'batlantirish taklifi bildirildi.

Ta'lim bilan tarbiya uzviy olib boriladi. O'zbekiston Prezidentining shu yil 15-noyabrda qaroriga muvofiq o'quvchilarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimiga e'tibor kuchaydi.

Yuqori sinflarda harbiy vatanparvarlik darslari bir soatga ko'paytirildi. Ushbu yo'nalish o'qituvchilari nufuzini oshirish uchun ularga harbiy unvon berish tartibi belgilandi.

Kelgusi o'quv yiliga qo'shimcha bu fan bo'yicha yangi darsliklar ishlab chiqiladi, kasbiy salohiyati yuqori o'qituvchilar ishga jalb etiladi.

Mudofaa vazirligi bilan birga 208 ta ta'lim maskanida "Jasorat maktablari" tashkil etiladi. Bu maktablarga tarbiyasi og'ir o'quvchilar ham qamrab olindi.

Joriy yil 30-sentabr kuni sohaga doir yana bir muhim hujjat — maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha Prezident Farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq 2025-yildan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori o'rinbosari lavozimini joriy etiladi. "Metodik mahorat soati", "Metodik mahorat kuni" kabi malaka oshirish shakllari tashkil qilinadi.

Keyingi yil 162 ta maktabgacha ta'lim muassasasi quriladi, 100 ta xususiy va mingta oilaviy bog'cha ochiladi. Bular orqali maktabgacha ta'lim qamrovi 78 foizga yetkaziladi. Maktabga tayyorlov guruhlari bilan boshlang'ich sinf o'quv dasturlarining uzviylik oshiriladi.

Prezidentimiz sohani barcha hududlarda rivojlantirib, umumiy ta'lim sifati oshirish, bunda, ayniqsa, chekka tumanlarga alohida e'tibor qaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

TIBBIYOTNI XALQIMIZGA YANADA YAQINLASHTIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR AMALGA OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida sog'liqni saqlash sohasida qilingan ishlar va 2025-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalar ko'rib chiqildi.

Bu sohadagi sifat o'zgarishlari shahardan to chekka hududlarga, bolajonlardan tortib keksalargacha — hammaning hayotida aks etadi. Shu bois unga ajratilayotgan byudjet mablag'lari har yili ko'paytirib borilmoqda. Barcha ijtimoiy xizmatlar tibbiyot tibbiyot ham xalqimizga yaqinlashtirilmoqda. Birlamchi bo'g'inda 18 mingdan ziyod tibbiy brigadalar tashkil qilingan.

Kasalliklarni aniqlash va davolash amaliyotiga zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatda diagnostika usullari 500 dan, davolash usullari esa 800 dan oshdi. Xususiy tibbiyot rivojiga keng yo'l ochilgan tufayli xizmatlar tarmog'i va tanlash imkoniyati ko'paydi.

2024-yilda sohaga 36 trillion so'm

ajratilgan edi. Bu o'tgan yildagiga nisbatan 25 foiz ko'pdir.

Birlamchi bo'g'inda 6 turdagi skrining tekshiruvi yo'lga qo'yildi. Natijada 106 ming kishida qandli diabet, 194 ming nafarida yurak-qon tomir, 2 mingdan ziyod ayollarda saraton, mingga yaqin bolalarda onkologematologik kasallik erta bosqichda aniqlandi.

Davolash sifati va samaradorligi alohida e'tibor talab qiladi. Shu maqsadda 2 mingdan ziyod mutaxassislar xorijda qayta o'qitildi. Natijada hududlardagi yuqori texnologik operatsiyalar ulushi 61 foizga yetdi. 43 ta yo'nalishdagi 191 ta klinik protokol xalqaro andozalar asosida yangilandi.

Ixtisoslashtirilgan markazlar va filiallarda bu yil 100 ming bemor imtiyozli yo'llanma asosida davolandi.

7 ta ixtisoslashtirilgan markaz sifat nazorati bo'yicha xalqaro akkreditatsiyadan o'tdi.

2025-yilda sog'liqni saqlash sohasiga 41 trillion so'm ajratilishi ko'zda tutilgan. Bu mablag' hisobidan yangi shifoxonalar tashkil etish va jihozlash, mavjud quvvatlarni kengaytirish, tibbiy ko'rik qamrovini kengaytirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari bu sohadagi asosiy vazifa — birlamchi bo'g'inda tibbiyot sifati oshirish ekanini ta'kidladi. Buning uchun vazirlik vertikalni hududlarda to'g'ri ishlatis, ayniqsa, chekka va og'ir tumanlarga e'tiborni kuchaytirish vazifasi qo'yildi.

Turkiyalik ekspertlar 6 ta hududda tibbiyot muassasalari faoliyati va ularda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni o'rgandi. O'rganishlar natijasida aholiga ko'rsatilayotgan

birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatlarini tizimli isloh qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

Mutasaddilarga bu masalani chuqur tahlil qilib, birlamchi bo'g'in transformatsiyasi bo'yicha qaror loyihasini tayyorlash topshirildi.

Ushbu yo'nalish xodimlarining malaka oshirish dasturi takomillashtiriladi. Nazariy bilim va ko'nikmalarni egallashdan kompetensiyalarni rivojlantirishga bosqichma-bosqich o'tiladi.

Shuningdek, kelgusi yil tibbiyot xodimlarining o'ylik lavozim maoshlari oshiriladi. Oilaviy shifokorlarning mehnat samaradorligi asosida ustama to'lash tartibi joriy qilinadi.

Hududlarga bo'layotgan e'tibor izchil davom ettiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm,

Qashqadaryo viloyatlarida davlat tibbiy sug'urtasi amaliyotlari joriy etiladi. Markazlashgan laboratoriya xizmatlari kengaytiriladi. "Xaridlar markazi" va uning 13 ta hududiy filiali tashkil etilib, tibbiy jihozlardan foydalanish elektron tizim orqali nazorat qilinadi.

Yana 35 ta yo'nalishda 400 ta milliy klinik protokol ishlab chiqiladi. 7 ta ixtisoslashtirilgan markaz va 2 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Yig'ilishda kadrlar masalasiga ham e'tibor qaratilib, tibbiy o'quv yurtlarida ta'lim sifati oshirish, uning amaliyot bilan hamohangligini mustahkamlash, bitiruvchilarning birlamchi bo'g'inda tajriba orttirishini tashkil etish muhimligi ta'kidlandi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 3-dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 18-dekabrda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar uchun O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet mablag'laridan foydalanish

Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan (bundan buyon matnda respublika byudjeti deb yuritiladi) ushbu Qonunga muvofiq ajratiladigan byudjet mablag'laridan faqat 2025 moliya yili davomida foydalaniladi va ular kelgusi moliya yiliga o'tkazilmaydi.

Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar o'zining joriy xarajatlarni, shu jumladan davlat rivojlantirish dasturlarini (bundan buyon matnda rivojlantirish dasturlari deb yuritiladi) amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'larni bir rivojlantirish dasturidan iqtisod qilingan mablag'lar doirasida boshqa rivojlantirish dasturiga qayta taqsimlashga haqli.

Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (bundan buyon matnda Vazirlar Mahkamasi deb yuritiladi) qaroriga asosan respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet mablag'larining 10 foizgacha bo'lgan cheklangan miqdorlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan o'z tasarrufidagi tashkilotlarga yo'naltirishga haqli.

Vazirliklar va idoralar ichki audit xizmatlari tomonidan baholangan tegishli rivojlantirish dasturlarining samaradorligi natijalari to'g'risidagi hisobotlarni hisobot choragidan keyingi o'yning 20-sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan genderga doir mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlarni har chorak yakunlari bo'yicha keyingi o'yning 10-sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga taqdim etadi.

Ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik milliy va davlat dasturlarini, shuningdek ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga doir loyihalarni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga chet el mabalaridan (chet davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan, xalqaro moliya va iqtisodiy institutlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlaridan) ajratiladigan grant mablag'larining (bundan miqdorlari va tarmoqlarini O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mustaqil ravishda aniqlash shartlari (imkoniyatlari) bilan ajratiladigan grant mablag'lari mustasno) belgilangan miqdorlari ushbu Qonunga o'zgartirish kiritilmasdan ko'paytiriladi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

«2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 3-dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 18-dekabrda ma'qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish, shu jumladan aholining hayoti uchun qulay sharoitlar yaratish, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sportni va boshqa sohalarni rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga amalga oshirilayotgan tadbirlarning o'z vaqtida moliyalashtirilishini ta'minlash va qo'shimcha xarajatlar manbalarini aniqlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur Qonun bilan «2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ayrim toifadagi bemorlarga dori vositalarini bepul taqdim etish, madaniyat va san'atni rivojlantirish, Milliy futbol markazini tashkil etish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, zamonaviy konstruktorlik hamda sinov byurolariga ega bo'lgan, jadal rivojlanishni ta'minlaydigan innovatsion sanoat zonalarni barpo etish, shuningdek innovatsion va yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish uchun mablag'lar ajratilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xazira jamg'armasi hajmi, O'zbekiston Respublikasi nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati asosida olinadigan davlat qarzining cheklangan hajmi oshirilmoqda. Davlat byudjetidan davlat maqsadli jamg'armalariga ajratiladigan transfertlar miqdorlari, ushbu jamg'armalarning daromadlari hamda xarajatlari o'zgartirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda topshiriqlariga muvofiq mablag'larning bir qismini maqbullashtirish va ularni qo'shimcha xarajatlarga yo'naltirish nazarda tutilmoqda.

Ushbu Qonun mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirishga, shuningdek 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va O'zbekiston Respublikasi davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari mablag'larining maqsadli hamda samarali sarflanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda qabul qilingan «2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi O'RK—886-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2023-yil, № 12, 1006-modda) quyidagi o'zgartirishlar kiritiladi:

1) 8-moddaning birinchi qismidagi «900,0» raqami «1 424,8» raqami bilan almashtiriladi;

2) 10-moddaning matni quyidagi tahrirda bayon etiladi: «2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasi (O'zbekiston Respublikasi hukumati) nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolananadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 7,3 mlrd AQSH dollari, shundan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun — 3,2 mlrd AQSH dollari, investitsiya loyihalarni moliyalashtirish uchun — 4,1 mlrd AQSH dollari miqdorida belgilansin.

(Davomi 3, 4, 5, 6-betlarda).

Oʻzbekiston Respublikasining
QONUNI2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining
Davlat byudjeti toʻgʻrisida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi darajali byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet mablagʻlaridan foydalanish toʻgʻrisidagi, shuningdek rivojlantirish dasturi maqsadli indikatorlarining bajarilish holati haqidagi hisobotlarini eshittishni amalga oshiradi.

2-bob. Oʻzbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti parametrlari**3-modda. Oʻzbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti daromadlari va xarajatlari**

2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametri hamda 2026–2027-yillar uchun byudjet moʻljallari 1-ilovaga muvofiq, ularni tayyorlashda asos boʻlib xizmat qilgan 2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va 2026–2027-yillar uchun maqsadli moʻljallar 2-ilovaga muvofiq maʼlumot uchun qabul qilinadi.

4-modda. Davlat maqsadli jamgʻarmalarining hamda Oʻzbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasining daromadlari prognozi va xarajatlari

2025-yil uchun davlat maqsadli jamgʻarmalarining hamda Oʻzbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasining daromadlari prognozi maʼlumot uchun qabul qilinadi hamda ularning xarajatlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5-modda. Respublika byudjetining daromadlari prognozi va xarajatlari

2025-yil uchun respublika byudjetining daromadlari prognozi 4-ilovaga muvofiq maʼlumot uchun qabul qilinadi.

2025-yil uchun birinchi darajali byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet mablagʻlarining cheklangan miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat hokimiyati organlari va respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, sud va prokuratura organlarining byudjetdan tashqari jamgʻarmalarga soliqlar, davlat boʻljari, yigʻimlar va soliq boʻlmagan toʻlovlar, maʼmuriy jarimalar hamda moliyaviy sanksiyalar hisobidan kelib tushadigan mablagʻlarning bir qismi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan respublika byudjetiga oʻtkazilishi mumkin.

6-modda. Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlar

2025-yil uchun Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlar 6-ilovaga muvofiq maʼlumot uchun qabul qilinadi.

2025-yil uchun respublika byudjetidan Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transferlar miqdorlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibga soluvchi byudjetlararo transferlar miqdorlarini Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozining ijrosidan qatʼi nazar, kamaytirishga yoʻl qoʻyilmaydi.

7-modda. Ayrim toʻlovlar stavkalari

2025-yil uchun:

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalari 8-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadida);

tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yigʻimlarning cheklangan stavkalari 9-ilovaga muvofiq; chet davlatlar avtotransport vositalarining Oʻzbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yigʻimlarning stavkalari 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Oʻzbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qoʻllaniladigan bojxona boʻljari stavkalari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

8-modda. Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpogʻiston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamgʻarmalarini shakllantirish

2025-yil uchun Vazirlar Mahkamasining zaxira jamgʻarmasi hajmi 1,0 trln. soʻm miqdorida belgilansin.

2025-yil uchun Qoraqalpogʻiston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamgʻarmalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarning (bundan tumanlar va shaharlar byudjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablagʻlari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi. Bunda davlat tibbiy sugʻurtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda tegishli tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamgʻarmalari ushbu mexanizmlar joriy etilgan yildan oldingi yildagi hajmdan kam boʻlmagan miqdorda shakllantiriladi hamda qoʻshimcha mablagʻlarni shakllantirish tegishli yuqori turuvchi byudjetlarning zaxira jamgʻarmalari mablagʻlarini kamaytirish hisobidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika byudjetini, viloyatlarning viloyat byudjetlarini va Toshkent shahrining shahar byudjetini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini ijro etish chogʻida yuqori turuvchi byudjetdan ajratiladigan byudjetlararo transferlar miqdorlari oshgan taqdirda, tegishli byudjetlar zaxira jamgʻarmalarining belgilangan miqdorlari qayta koʻrib chiqilmaydi.

Vazirlar Mahkamasining zaxira jamgʻarmasidan mablagʻlar ajratilgan taqdirda ushbu Qonunga oʻzgartirishlar kiritilmaydi.

9-modda. 2025-yilda Oʻzbekiston Respublikasining byudjet tizimi barqarorligini taʼminlash

Oʻzbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining olti oylik ijrosi yakunlari boʻyicha daromadlari prognozi bajarilmagan va joriy moliya yilining oxiriga qadar ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud boʻlmagan hollarda:

respublika byudjeti umumiy xarajatlarning 3 foizidan ortiq miqdordagi xarajatlarni qisqartirish Vazirlar Mahkamasining taklifiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan; respublika byudjeti umumiy xarajatlarning 3 va undan kam foizi miqdordagi xarajatlarni qisqartirish Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining taklifiga koʻra Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshiriladi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining xarajatlarni qisqartirish boʻyicha qarorlar tegishincha Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻrgʻori Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan qabul qilinadi.

Byudjetlar xarajatlarni qisqartirishda byudjet tashkilotlarining va byudjet mablagʻlarini oluvchilarning byudjet mablagʻlarini oʻzlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi. Bunda ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarni kamaytirish Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 120-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

10-modda. Oʻzbekiston Respublikasi nomidan va Oʻzbekiston Respublikasining kafolati ostida olinadigan davlat qarzining hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining cheklangan hajmini belgilash

2025-yil uchun:

Oʻzbekiston Respublikasi (Oʻzbekiston Respublikasi hukumati) nomidan va Oʻzbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish boʻyicha yillik imzoladigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 5,5 mlrd. AQSH dollari, shundan Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qoʻllab-quvvatlash, shu jumladan Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun – 3,0 mlrd. AQSH dollari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun – 2,5 mlrd. AQSH dollari;

Oʻzbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qogʻozlarining cheklangan sof hajmi 30,0 trln. soʻm;

davlat tomonidan majburiyatlar qabul qilinishi (sotib olinishi yoki toʻlanishi) va davlat tomonidan tasdiqlovchi xatlar berilishi talab etiladigan davlat-xususiy sheriklik prinsiplari asosida imzoladigan barcha yangi loyihalar qiymatining cheklangan miqdori 6,5 mlrd. AQSH dollari miqdorida belgilansin.

11-modda. Oʻzbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti taqchilligining cheklangan miqdorini belgilash

2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotning 3 foizi miqdorida belgilansin.

Oʻzbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti taqchilligi cheklangan miqdorining oshib ketishiga olib kelishi mumkin boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamgʻarmalari hisobidan qoʻshimcha xarajatlar faqat qoʻshimcha daromad manbai mavjud boʻlganda yoki boshqa xarajatlarni qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi.

3-bob. Byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari**12-modda. 2025-yil uchun Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlarini shakllantirishning oʻziga xos xususiyatlari**

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar byudjetlariga toʻliq hajmda oʻtkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi; jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi; mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan toʻlanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan toʻlanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi; suv resurslaridan foydalanish uchun soliq;

noruda qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanish uchun soliq; aylanmadan olinadigan soliq; yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, bundan yirik soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlanadigan soliq mustasno; yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi, bundan yirik soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlanadigan soliq mustasno; davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromadlar turlari qoʻllanilganda, tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlari xarajatlardan koʻp boʻlgan taqdirda, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻrgʻori Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari yuqori turuvchi byudjetlarga ajratmalarni nazarda tutishi mumkin.

Soliqlarning quyidagi turlari Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga toʻliq hajmda oʻtkaziladi:

yirik soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlanadigan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq; yirik soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlanadigan, yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi; benzinni, dizel yoqilgʻisini va gazni yakuniy isteʼmolchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz soligʻi;

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz soligʻi boʻyicha tushumlar, tegishincha oʻtgan moliya yilining 1-iyul holatiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq. Bunda daromadlar boʻyicha prognozning bajarilmagan qismi Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga respublika byudjeti mablagʻlari hisobidan qoplanadi, daromadlar boʻyicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa

respublika byudjeti ixtiyorida qoladi.

Soliqlar Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻidan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiyaga asosan toʻlaydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar toʻlaydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻidan tashqari) Navoiy viloyatida 66 foizi, Toshkent viloyatida 51 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

foйда soligʻidan tushgan tushumlarning (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan roʻyxatga muvofiq yirik soliq toʻlovchilar, Oʻzbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi Oʻzbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning toʻlov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan toʻlanadigan foyda soligʻidan tashqari) Navoiy viloyatida 70 foizi, Toshkent viloyatida 49 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import qilinadigan alkogol mahsulotlari va pivodan tashqari) uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan toʻlanadigan aksiz soligʻining Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 30 foizi oʻtkaziladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika byudjeti va Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari oʻrtasida taqsimlanadi:

davlat boʻljari; jarimalar; yigʻimlar; davlat daromadiga oʻtkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar.

Qonunchilikda belgilangan tartibda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar byudjetlari hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari oʻrtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi tushumlarining kamida 50 foizi (bundan yirik soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlanadigan soliq mustasno) tumanlar va shaharlar byudjetlariga oʻtkaziladi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻrgʻori Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli darajadagi mahalliy byudjetlarga ajratiladigan soliqdarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan ushbu moddaning uchinchi, toʻrtinchi va beshinchi qismlarida koʻrsatilgan daromadlarni) hamda byudjetlararo transferlarni taqsimlashga; daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablagʻlarning bir qismini tumanlar va shaharlar byudjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻrgʻori Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari ushbu Qonun 8-ilovasining 1-bandida belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalariga nisbatan tumanlar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishi darajasiga qarab 2,0 gacha oshiruvchi koeffitsiyentni joriy etishga haqli. Bu holda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi tomonidan ushbu koeffitsiyentdan Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksida yer soligʻini hisob-kitob qilish maqsadlari uchun belgilangan zonalar kesimida foydalaniladi.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha oʻsib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga haqli.

Agar qonunchilikda daromadlarning byudjet darajalari boʻyicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan boʻlsa:

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga oʻtkazilishi lozim boʻlgan daromadlarning turlari respublika byudjetiga oʻtkaziladi; mahalliy byudjetlarga oʻtkazilishi lozim boʻlgan daromadlarning turlari tegishincha Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga oʻtkaziladi.

Byudjet tizimi byudjetlariga ortiqcha yoki notoʻgʻri toʻlangan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda boʻlgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli byudjet tizimi byudjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari boʻyicha esa respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalarini hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud boʻlgan yuridik shaxslar (shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025-yilning 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari boʻyicha oʻz sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi boʻyicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga oʻtkaziladi. Shuningdek ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud boʻlgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024-yildagi va 2025-yildagi davlat ulushi boʻyicha sof foydasining 100 foizini Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga dividendlar tarzida oʻtkazadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud boʻlgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar toʻlash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqli.

13-modda. 2025-yilda Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti xarajatlarni amalga oshirishning oʻziga xos xususiyatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga koʻra amalga oshiriladigan qoʻshimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarining qoʻshimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Choraklar yakunlari boʻyicha ushbu Qonunning 6-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz koʻrsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablagʻlarning tushish ehtimoli boʻlmagan taqdirda, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

Toshkent shahar hokimliklari Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish boʻyicha choralar koʻrish bilan birga tartibga soluvchi byudjetlararo transferlar miqdorini oshirish yuzasidan soʻrov bilan murojaat qiladi hamda mazkur taklif Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu Qonunda belgilangan tartibda koʻrib chiqiladi.

Bunda Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining tegishli chorakdagi mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablagʻlarning tushish ehtimoli mavjud boʻlmagan byudjet daromadlari turlarining prognoz koʻrsatkichlari aniqlashtiriladi hamda ushbu summa boshqa daromad manbalari yoki respublika byudjeti hisobidan qoplanadi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklari ham Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga xuddi shunday tartibda murojaat qiladi.

Quyidagilar tegishincha Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladi:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari; sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq toʻlash bilan bogʻliq xarajatlari.

Quyidagilar Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladi:

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining sogʻliqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal taʼmirlash va jihozlashga, shuningdek sugʻoriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal taʼmirlash hamda taʼmirlash-tiklash ishlariga doir xarajatlari;

Soliq qoʻmitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari; Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

kollejar va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

Quyidagilar respublika byudjetidan moliyalashtiriladi: kam taʼminlangan oilalarga bolalar nafaqalarini va moddiy yordamni toʻlash;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining tizim tashkilotlarini (bolalar va mehribonlik uylari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari hamda oilaviy bolalar uylari) saqlash xarajatlari;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining maktabgacha taʼlim tashkilotlari, umumtaʼlim hamda ixtisoslashtirilgan maktablari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal taʼmirlash va jihozlashga doir xarajatlari;

Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasini, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Suv xoʻjaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarini, shuningdek suv omborlaridan foydalanish boshqarmalarini saqlash xarajatlari.

